

## GLOBALASHUV DAVRIDA YOSHLAR ORASIDA MA'NAVIY MASALALAR VA MA'NAVIY-MADANIY OZUQALAR O'RNI VA AHAMIYATI

**Xayrullo Atavullayev**

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*“Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat” bo'lim boshlig'i*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada davlat va jamiyatimizda jadal o'zgarishlar strategik harakatlar, yoshlar orasida ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlar ongiga ma'naviy ozuqalar singdirish yo'llari tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ma'naviyat, yoshlar, san'at, madaniyat, strategiya, tarbiya, ta'lim, jadid, kadr.*

*“Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”*

*Sh. Mirziyoyev*

Demokratik jamiyatimiz taraqqiyotida yoshlar orasida ma'naviy –ahloqiy tarbiya, ma'naviy ozuqa va uning omillari muhim rol tutmoqda. Uchinchi renessans shiori ostida taraqqiy yo'llarini olib borayotgan Vatanimiz yoshlariga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda.

Butun dunyo Yangi O'zbekiston taraqqiyotini jadal rivojlanish strategiyalari asosida olib borilayotgan ishlar natijasi bilan tan olmoqda. Mutafakkirlar va ulug' ajdodlarimiz buyuk ma'naviyatini qayta kashf etmoqdamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev <sup>15</sup>“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deganlaridek, uchinchi Renessans asoschilari bo'lmish yoshlarga imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlar bosib o'tgan yo'li hozirgi kunga qadar jahon sivilizatsiyasidan joy olgan.

Yoshlar – kelajak! Buyuk daholarimiz davomchilari, jadidlarimiz, jamiyatimizning ilg'or qatlami. Kelajagimiz buyuk daholari bo'lmish yoshlarimiz dunyoqarashi, fikrlashi sog'lom, ilmda izlanuvchan bo'lishi uchun sifatli ta'lim va malakali kadr tayyorlash ishlari bo'yicha bir necha chora tadbirlar olib borilmoqda. Shular qatorda <sup>16</sup>“Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va imiy salohiyatni yanada rivojlantirish” chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston

<sup>15</sup> “Yoshlarga donolar o'giti” kitobi 2018-yil nashr etilgan.

<sup>16</sup> Lex.uz

Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 – fevraldagi 4585-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror butun raqs san’ati egalari uchun yangi innovatsion o’zgarishlar va ilmiy salohiyatni yanada yuksaltirish, malakali kadrlarni tarbiyalash, sifatli ta’lim berish yo’llarini ishlab chiqdi.

Hozirgi vaqtda yoshlar noaniq, o’zgaruvchan sharoitlarda yashaydilar. Axborot texnologiyalari sohasidagi uzluksiz taraqqiyot, global o’zgarishlar ommaviy ijtimoiy-madaniy tizim sharoitida an’anaviy qadriyatlar va milliy madaniyat yo’qola boshlaganiga olib keldi. Ammo axborot-kommunikatsiyalar davrida yashar ekanmiz jamiyatimizda yoshlar masalalari ham ko’paymoqda.

Yosh avlod hayotida aqliy - filmlar, internet-kontentlarni tomosha qilish, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, musiqa tinglash va hokazolar. Bu amaliyotlarni shaxs ongiga yuklangan qiymat hamda uni yoshlar tomonidan baholash kontekstida o’rganish masalalarini ko’rish kerak.

Bolalar va yoshlarning asosiy (ma’naviy) qadriyatlarini shakllantirish ta’lim va tarbiya olib boriladigan ijtimoiy muhit, ulg’ayish bosqichi, tengdoshlari bilan o’zaro munosabatlari va tabiati bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlar, ijtimoiy tomonidan belgilanadigan pozitsiyalarning farqlanishi jamiyatning tuzilishi va bugungi global jarayonlardir.

Yoshlarning ma’naviy madaniyati o’ziga xoslikni o’z ichiga oladi voqelikni aks ettirish usullari va vositalari: aql va his-tuyg’ular, intellekt, aql, tasavvur, xotira va diqqat. Ularning yordami bilan ma’naviy madaniyat amalga oshiriladi.

<sup>17</sup>O’smirlar uchun sog’lom ma’naviyat avlodlar - qiymat, shakllanish, sifatni rivojlantirish va tejash unda hamma ishtirok etishi kerak: oila, ta’lim tizimi, yoshlar

tashkilotlar va birlashmalar, diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari axborot, madaniyat va sog’liqni saqlash, davlat birinchi o’rinda turadi butun qonun chiqaruvchi hokimiyat va boshqalar. Qonunlar, ma’naviyatni saqlashga qaratilgan yosh avlodlar va ularni himoya qilish jismoniy salomatlik, ularni himoya qilish kerak arzon sifatga bo’lgan huquqlar ta’lim, ma’naviy xavfsizlik uchun, munosib mehnat va o’z-o’zini anglashi bilan birga munosib tizimdir. Bugun ham davlat, ham jamiyat, va oila, qonun chiqaruvchi va qonun chiqaruvchi ularni amalga oshiradi,

<sup>18</sup>Ma’naviy ideal orzu-intilishlar, maqsad-muddaolar va ahloqiy fazilatlarni o’zlashtirish uchun yo’naltirish, da’vat qilish bilan odamlarning ruhi, aqli va kayfiyatini yuksaltiradi. Shu o’rinda jamiyatimizda ma’naviy idealni shakllantirish va undan jamiyatni rivojlantirishda foydalanish yo’llarini ishlab chiqish dolzarb masala bo’lmoqda. Ma’naviy ideallik bu nima? Dastlab “ma’naviyat” va “ideal” so’zi terminlarini aniqlashtirib olsak.

“Ma’naviyat” arab tilidan olingan bo’lib “ahloqiy holat” degan ma’noni anglatadi. “Ma’naviyat” – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.

<sup>17</sup> “Молодежи духовной современной молодежи” статья Шихова Ольга, Елена Викторовна 2022 год.

<sup>18</sup> “Ma’naviy ideal” kitobi, 2008-yil nashr etilgan.

“Ideal” tushunchasi fransuzcha soʻz boʻlib, lotinchada boʻlsa “idealus” «qiyofa», «mezon», «mukammallik»ni anglatadi.

Maʼnaviy idealning ahloqiy kategoriyalari mavjud boʻlib bular;

1. Ezgulik
2. Eʼtiqodlilik
3. Erkinlik

Ezgulik deganda har bir shaxsning xulqi, feʼl-atvori, xarakteri hisoblanadi. Shu bilan birga poklikni ham oʻz ichiga oladi. Eʼtiqodlilik boʻlsa ishonch, maʼsuliyat, harakatlilik umumiy bagʻrikenglikni anglatadi. Erkinlik tushunchasida tanlash, anglash, tushunish yaʼni birodarlikni bildiradi.

Bugungi kunda Vatanimizda demokratik jamiyatimizning rivojlanish yoʻlida maʼnaviy ideal muhim rol oʻynaydi.

Xulosa qilib aytganda maʼnaviyat orqali yuksalamiz. Yoshlar hayotida maʼnaviy-madaniy ijtimoiy omillarga boʻlgan masalalar koʻpaymoqda. Maʼnaviy ozuqalarga ham eʼtibor qaratilsa maqsadga muvaffiq boʻlar edi. Yoshlar hayotida kundalik rejalarga nazar tashlash kerak. Maʼnaviy va maʼrifiy tadbirlar oʻtkazish bilan bir qatorda yoshlar ongini maʼnaviy ozuqalar bilan toʻldirish kerak. Maʼnaviy ozuqalar bu nima? Musiqa, raqs, cholgʻu chalish, kino, muzey, kitob oʻqish, fikrlash (tahlil), teatr, madaniy-maʼrifiy kechalarga qatnashish. Haftada bir marta boʻlsa ham kino koʻrish. Maishiy yokida sifatsiz emas balki butun dunyo reytingida baland oʻrin egallagan hujjatli, avtobiografik, tarixiy hatto komedik filmlarni oila davrasida tomosha qilish. Umumiy qilib aytganda yoshlar hayotida maishiy ozuqalar emas madaniy-maʼrifiy ozuqalar ila toʻldirish kerak. Axborot media makonida yashar ekanmiz kommunikatsiyalardan toʻgʻri foydalanish yoʻllarini targʻib etishimiz kerak. Madaniyat va maʼrifat bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Madaniyatsizlik – yovuzlikni keltirib chiqadi. Madaniyat inson hayotining barcha sohalarida namoyon boʻladi va u barcha sohalar uchun zarurdir. Maʼnaviyat-madaniyatning mazmunidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Maʼnaviy ideal” kitobi 2008-yil nashr etilgan.
2. “Yoshlarga donolar oʻgiti” kitobi 2018-yil nashr etilgan.
3. “Модели духовной современной молодёжи” Olga Shixova va Elena Viktorovna maqolasi.
4. Lex.uz sayti.